



THE ROLE OF THE FORMATION OF PHYSICAL CULTURE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Nurali Normirzaevich Nazarov

Professor, Department of "Social Sciences and Physical Education"

Tashkent University of Economics and Technologies

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: physical culture, development of society, social life, physical activity, human health, youth, cultural and social phenomenon.

Abstract: From a philosophical point of view, the article reveals the essence and importance of physical culture in educating the social life of young people.

Received: 13.01.26

Accepted: 14.01.26

Published: 15.01.26

JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Nurali Normirzaevich Nazarov

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti

"Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasi professori

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy hayot, jismoniy harakat, inson salomatligi, yoshlar, sport madaniy-ijtimoiy hodisa sifati.

Annotatsiya: Maqolada jismoniy madaniyatning mohiyat va mazmuni yoshlar tarbiyasi hamda ijtimoiy hayotda tutgan o'rni falsafiy jihatdan yoritib berilgan.

РОЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Нурали Нормирзаевич Назаров

Профессор кафедры «Социальные науки и физическое воспитание»

Ташкентского университета экономики и технологий

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: физическая культура, развитие общества, общественная жизнь, физическая активность, здоровье человека, молодежь, культурно-социальное явление.	Аннотация: В статье с философской точки зрения раскрываются сущность и значение физической культуры в воспитании общественной жизни молодежи.
--	--

Kirish. Dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini va so'ziga ega bo'lgan mamlakatimizda erkin demokratik jamiyat qurishimiz uchun kamarbasta bo'ladigan jismoniy barkamol ma'naviy yetuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yosh avlodni tarbiyalash juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2025 yil 26 dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Eng muhim yutuqlarimiz haqida so'z yuritganda, azmu shijoatli sportchilarimizning nufuzli xalqaro musobaqalarda erishgan g'alabalarini mamnuniyat bilan ta'kidlash o'rinlidir. Avvalo, O'zbekiston futboli uchun 2025 yil chinakam tarixiy yil bo'ldi. Futbol bo'yicha Milliy terma jamoamiz ilk bor Jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Mohir shaxmatchilarimiz Jahon kubogi musobaqalarida munosib ishtirok etdi. Ayniqsa, navqiron grossmeysterimiz Javohir Sindorov eng yosh jahon kubogi sohibi bo'lgani barchamizga yuksak g'urur bag'ishlaydi. 9-17 yoshli shaxmatchilar o'rtasida "rapid" va "blis" yo'nalishlari bo'yicha jahon chempionatida yurtimiz vakillari 5 ta oltin, 2 ta kumush va 5 ta bronza medalini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi.

Bu yilgi Yoshlar Paraosiyo o'yinlarida jasorat va matonat sohibi bo'lgan sportchilarimiz 125 ta oltin, 77 ta kumush va 52 ta bronza medalini qo'lga kiritib, ishtirokchi davlatlar orasida eng yuqori natijani qayd etdi. Hech shubhasiz, iste'dodli o'g'il-qizlarimiz ta'lim, ilm-fan, madaniyat, san'at, sport va boshqa sohalarda erishayotgan katta yutuqlari bilan ham Yangi O'zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston kelgusi yili 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga, 2027 yilda 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi jahon chempionatiga, 2029 yilda esa Yoshlar Osiyo o'yinlariga mezbonlik qiladi" deya ta'kidladilar. [13]

Tadqiqot natijalari. Insondagi mavjud imkoniyatlarni keng quloch yoydirish uchun shaxsning u yoki bu sifatlariga, uning bir kator o'zigagina xos xususiyatlarini safarbar qilishga bir tomonlama yondashish yo'li bilan erishib bo'lmaydi. Shaxsning barcha jihatlarini hisobga oluvchi tadbirlar majmuasigina ijobiy samara berishi mumkin. Shuning uchun hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi sifatida insonga nisbatan yangicha yondashishning ijtimoiy, siyosiy, moddiy, ma'naviy, jismoniy, axloqiy va boshqa masalalarini hal qilmasdan turib aholini sog'lomlashtirish darajasini yaxshilab bo'lmaydi. Ushbu masalalar majmuasida inson faoliyatining barcha yo'nalishlarida ijtimoiy vazifalarni hal qilishda insonning jismoniy takomillashuvi masalasi munosib va tobora muhim ahamiyat kasb etmokda.

Bugungi kunda aholi sog'lomligi tushunchasiga yan-igicha nazar bilan qarashni shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan davrning o'zi talab qilmoqda. Hozirgi jo'shqin siyosiy, ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida aholini sog'lomlashtirishning mohiyatini ochib berish va uning ma'nosini belgilashga, uni o'rganishga yaxlit va sistemali yondashish yo'li bilangina erishish mumkin. Shu asosda ish olib borilgandagina aholini sog'lomlashtirishning barcha imkoniyatlarini amalda to'liq yuzaga chiqarishga erishiladi.

Insoniyat paydo bo'lgandan buyon odamlar jismoniy harakat barcha boyliklar va inson salomatligining manbai ekanligini yaxshi tushunganlar. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida tabiatni o'zlashtirish va jamiyat bilan, xalq va xudud bilan yaqindan aloqador bo'lishda jismoniy harakatlar va jismoniy mehnatga ehtiyoj sezganlar. Jismoniy mehnatsiz hech narsa sodir bo'lmasligi, jismoniy mehnatsiz inson o'zining insoniy va hayotiy ehtiyojlarini qondira olmasligini har qadamda his qilganlar. Ana shu tariqa jismoniy harakatdan jismoniy mashqlar, jismoniy mashqlardan jismoniy madaniyat ko'nikmalari paydo bo'la boshlagan. Busiz inson o'zining sog'lom kundalik turmush tarzini ko'ra olmagan. Bunday jismoniy mashqlarning tabiiy etnomadaniy ko'rinishlaridan umuminsoniy jismoniy madaniyat shakllarining qaror topishiga uzoq aqliy va jismoniy mehnat tajribasining to'planishi zarur bo'lgan.

Ibtidoiy odamlarning ov mashg'ulotlari uchun epchillik, tezlik va jur'atli faoliyat zarur bo'lsa, dehqonchilik uchun qo'l va oyoq, gavda va ko'z harakatlaridagi uyg'unlik talab etilgan. Garchi bunday jismoniy mehnat ehtiyojlari hali jismoniy madaniyatning hozir biz tushungan ko'rinishlari bo'lmasada, har qalay, jismoniy madaniyatning ilk namunalari bo'lgan. Ularsiz va keyingi jismoniy va ma'naviy taraqqiyot mahsuli bo'lgan jismoniy madaniyat tushunchasi shakllanmagan bo'lar edi.

Donishmandlar olam va odam, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarni kengaytirgan sari jismoniy tarbiyaning ham umumfalsafiy mohiyatiga ahamiyat berganlar. Butun olam va tabiatning materiya yashash shakllaridan ekanligi tan olingan sari harakat tushunchasi va uning natijasi insonning tabiiy va ijtimoiy mohiyatini belgilashda asosiy rol o'ynay boshladi. Masalan, Aristotel "Harakat-hayot xazinasini" degan bo'lsa, Plutarx "Hayot harakatni talab qiladi", deydi.

Harakatda bo'lgan munosabat insoniyat taraqqiyoti bilan barobar ravishda yuksalib, manaviylashib bordi. Harakat shunchaki jismoniy va yashash ehtiyojlarini qondirishdan chiqib, ma'naviy-estetik va ijtimoiy ahamiyat kasb eta boshladi. Bu narsa, ayniqsa, qadimgi Yunon ijtimoiy-tarixiy sharoitida va etnomadaniyatida ko'zga yaqqol tashlanadi.

Qadimgi Yunonistondan boshlab jismoniy harakat jismoniy madaniyat ekanligi, jismoniy madaniyat mamlakat va xalq ijtimoiy-ma'naviy hayotining ko'zgusi ekanligi haqidagi tushuncha va qarashlar shakllanadi. Badiiy adabiyotlarda, haykaltaroshlik va tasviriy san'at asarlarida paxlavonlik, botirlik, chaqqonlik, epchillik va tezlik insonning jismoniy mashqi va harakati

natijalari ekanligi haqidagi tasavvur shakllanadi. Bunday tasavvurlar qadimgi faylasuflarning jismoniy tarbiya haqidagi tushuncha va qarashlariga asos bo'ladi. Ta'kidlashimiz joizki, shu o'rinda Gippokratning "Gimnastika, jismoniy mashqlar, piyoda yurish mehnat qobiliyatini va salomatligini saqlab qolmoqchi bo'lgan, chinakam va shodmon hayot kechirishni xohlagan har bir odamning kundalik turmushidan mustahkam o'rin olmog'i lozim" degan fikri ayni haqiqatdir. Hamma xalqlarda harakatsizlik-o'lim bilan barobar, mehnatdan uzilgan, ahloq va insonning ijtimoiy mohiyatiga teskari hodisa sifatida qaraladi. Harakat esa hatto qarilik dil xiraliklarini yenguvchi, insonga uzoq umr ko'rishni hadya etuvchi vosita ekanligi idrok etildi. Masalan, T. Tasso fikricha, "Harakat ta'sir jihatidan har qanday dorining o'rnini bosishi mumkin, lekin dunyodagi jamiki dori-darmon harakatchalik ta'sir ko'rsatolmaydi". Qaerda hayot bor ekan, u yerda harakat mavjud. Harakat to'xtagan joyda hayot to'xtaydi. To'g'ri, harakatning ko'rinish va yo'nalishlari ko'p. Inson jismoniy mehnat qiladimi, aqliy mehnat bilan shug'ullanadimi, o'z faoliyat turiga muvofiq harakat qiladi. Inson faoliyatining natijasi harakat natijasiga bog'liq bo'ladi. Jismoniy mehnat boshqa, aqliy mehnat boshqa. Har ikkalasida harakat mavjud. Ammo Lev Tolstoy aytganidek, "Jismoniy mehnat qilmaslik, harakatsiz, faqat aqliy mehnat bilan shug'ullanish-g'am-tashvish keltiradi". Lev Tolstoy fikridan shunday xulosa chiqarish kerakki, jismoniy va aqliy mehnat turli, ammo mushtarak harakatlar birligidan tashkil topishi lozim. Faqat bir xil harakat mehnat faoliyati natijasi va oqibatiga ta'sir etishi mumkin. Faqat aqliy mehnat band bo'lib, ertalabdan kechgacha stolda mixlanib o'tirish nainki qon tomirlari xarakati, umurtqa bo'g'inlari faoliyati, balki miya va asab bo'g'inlariga ham salbiy ta'sir etib, Tolstoy aytganiday insonga "g'am-tashvish" keltirishi ham mumkin.

Demak, inson faoliyatining normal va unumli davom etishi uchun inson a'zosi badanining hamma bo'g'inlarini harakatga keltirish, ya'ni jismoniy madaniyatga ega bo'lmoq zarur. Aks holda yo jismoniy o'sish, yo aqliy o'sish bo'lishi mumkinu, jismoniy madaniyat bo'lmaslik ehtimoli bor. Ana shunday mutanosiblikni nazarda tutgan Platon yozadi: "Mutanosiblikni saqlash, go'zal va sog'lom bo'lish uchun faqat fan va sanat sohasidagi bilimlarning o'zi kifoya qilmaydi, buning uchun umr bo'yi badantarbiya va gimnastika bilan shug'ullanish talab etiladi". Bu fikrning qanchalik to'g'riligi sportchi qiz va yigitlarimizning jismoniy go'zalliklari qanchalik salomatligi va sog'lom ruhiyati bilan chambarchas bog'liq ekanligida ko'zga yaqqol tashlanadi.

O'z hayotini jismoniy madaniyat va sport bilan bog'lagan yoshlarda, birinchi navbatda, ishonch-e'tiqod madaniyati shakllanadi. G'alabaga ishonch yarim g'alabadir. G'alaba orzusi tinimsiz mehnat, tinimsiz harakatni talab etadi. Jismoniy madaniyat va sport inson badani va vujudini jismoniy va ma'naviy davolash xususiyatiga ega.

Tarixdan ma'lumki, nafaqat Yevropada balki, Osiyoda ham jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish sog'lom avlodni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri ekanligini anglagan

ajdodlarimiz barkamol avlodni ma'nan hamda jismonan baquvvat bo'lishi uchun kurashib kelganlar. O'zlarining azaliy mashqlaridan tashqari O'rta Osiyoga bostirib kelgan xalqlarning jismoniy mashqlari ham mahalliy xalq tomonidan o'zlashtirilgan.[6] Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, A.Navoiy [5] va boshqa allomalar tomonidan jismoniy yetuklikni nazariy asoslari ham ochib berilgan. Jismoniy yetuklik allomalarning qarashlari bo'yicha insondan doimiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanib turishni talab qilgan. Allomalarimiz o'z qarashlarida jismoniy mashqlar deganda inson kundalik bajaradigan mashg'ulotlarni, yugurishni, yurishni, sakrashni otda bajariladigan mashqlar va boshqa jismoniy xarakatlarni mukammal bajarishni tushungan va o'z asarlarida ijobiy tomonlarini yoritib berganlar. Ibn Sino uchun badan tarbiyasi inson salomatligi va foydali mehnatining garovidir. Ibn Sino "Badan tarbiya" deganda inson hayoti va faoliyati bilan bog'liq juda ko'p narsalarni ko'zda tutadi: "O'z vaqtida, meyori badan tarbiya qilgan odamga dard yaqin yo'lamaydi": "Badantarbiya bilan mashg'ul bo'linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq ham shart": "Badantarbiyani tark etgan odam ko'pincha xarob bo'ladi, zero harakatsiz qolgan a'zolarining quvvati zaiflashadi". Binobarin, badantarbiya, ya'ni insonning o'z badani, tanasi, vujudini doimiy harakat va sog'lom faoliyatda tutib tursa, bunday odam salomatlik jihatidan ham, uzoq umr va kayfiyati yaxshi bo'lish jihatidan ham yutadi. Ibn Sino tasavvuridagi "badan tarbiyasi" inson umri uchun zarur bo'lgan hayot dori-darmoni bo'lib ko'zga tashlanadi. Demak, badantarbiya juda ko'p dorilarga muxtoj qilmaydi, ammo bironta eng yaxshi dori ham badan tarbiyasi, jismoniy tarbiya o'rnini bosa olmaydi. Shuningdek, jismoniy madaniyatning yana bir ijtimoiy mohiyati va ahamiyati shunda ko'rinadiki, jismoniy va aqliy mehnatlar bir-biridan ajratilmagan holda olib borilishi zarur. Aqliy mehnatdan so'ng dam olish yoki charchoqni chiqarish uchun jismoniy mehnat qanchalik zarur bo'lsa, jismoniy mehnatdan keyingi aqliy mehnat shunchalik samarali bo'ladi. Mehnatning bu ikki turi doimo bir-birini taqazo etib turadi.

Darhaqiqat, o'tgan asrning boshlarida xalqning ahvoli o'ta ayanchli bo'lib, mamlakatda ochlik, iqtisodiy tanglik hukm surardi. Jadidchilik harakatining faol qatnashchilari Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Behbudiy va boshqalar o'lkani halokatdan qutqarish va taraqqiyot yo'liga burishda ilm-fanning o'rni beqiyos ekanligini chuqur tushunib yetdilar. Ilm-fanni ravnaq toptirish, eng avvalo, ular fikricha, maktabni isloh qilishdan boshlanishi kerak. Ular maktablarda bolalarni o'qitish eski uslubda olib borilayotganligini, u yerlardan zamona talabiga javob beradigan ilmiy yoshlar chiqmayotganligini alam bilan ta'kidlaydilar. Ma'rifatparvarlar, agar bunday hol o'zgarmasa, Turkistonning iqtisodi, madaniyati va ilm-fani tanazzulga uchraydi, xalqi esa savodsiz, johil va nodonligicha qolib ketadi, degan fikrni bildirdilar. Behbudiy aqidasi ko'ra, ilmsizlik, jaholat va savodsizlik mamlakatni barbod qiladi, tarbiyasizlik esa bolalarning kamolga yetishuviga xalaqit beradi. U "Padarkush" asarida bu haqda

shunday deydi: “Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bewatan va banda qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdir. Bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqir va zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va tarbiyasizlikni mevasi va natijasidir. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo‘lganlar-da beilmlikdan”. [2] Eski maktablar asosan dinni o‘qitishga, johilona diniy taassubga asoslangan edi. Maktablarda chalasavod mullalar, dinning haqiqiy mohiyatini va jamiyatda tutgan o‘rnini tushunmaydigan muallimlar saboq berar edilar. Ma’rifatparvarlar maktablarda tartib-intizom o‘rnatilishi, ularda diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar o‘qitilishiga katta e’tibor berilishi lozimligini uqtirdilar.

Ma’rifatparvarlar ilmning jamiyatda tutgan o‘rniga katta baho berdilar, uni inson ko‘rkini bezaydigan, aqlini charxlaydigan, dunyoning sirru asroridan voqif qiluvchi, odamlarni baxt-saodat sari yo‘llovchi fazilat, ularga izzat va obro‘ keltiruvchi xislat, deb tushundilar. Munavvarqori ilmni insonning eng noyob hunarlaridan biriga kiritadi. Olimning fikricha, “ilm odamning zehnini ochar, aqlini orttirar, bilmagan narsalarini bildirar, dunyoda baxtli va izzatli qilur. Oxiratda saodatli va sharofatli qilur”. [3] Ma’rifatparvarlarning nazarida, ilm shunday katta kuchki, u halolni haromdan ajratishga, yaxshini yomondan, savobni gunoh ishlardan farq qilishga, insonning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishga yordam beradi. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq asarida shunday yozadi: “U madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa muhabbat va e’tiqodimizni ortdirur, janobi xaqning azamat va qudratini bildirur. Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur”. [1] Ko‘rinadiki, ma’rifatparvarlar axloq bilan ilm-fanni o‘zaro bog‘liq holda qaradilar. Ularni bir-biridan ayirib bo‘lmaydi. Zeroki axloq ilm-fanni to‘g‘ri tushunishga, uni natijalarini jamiyat farovonligi va manfaati yo‘lida xizmat qilishiga yordam beradi. O‘z navbatida fan insonlarning go‘zal fazilat va xulq-odob qoidalarini kasb qilishiga ko‘maklashadi.

Sobiq ittifoq davrida bir necha bor jumladan, 1981 yilning sengyabrida “Jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini yanada yuksaltirish to‘g‘risidagi” qaror qabul qilindi. Qarorda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari har kuni olib borilishi kerak bo‘lgan maktab-internatlarda bolalarni jismoniy tarbiyalashga alohida e’tibor beriladi. Yoshlarni dam olishi haqida gapirilganda, madaniy muasasalar klub xodimlari e’tiborini yigit qizlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan barcha yangiliklarni tuzatib borish zarurligiga qaratish lozim. Maktablarda olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlarini rivojlantirishga ota-onalar qat’iy ishtirok etishi kerak. Jismoniy tarbiya har bir oilaga kirib borishi, ertalabki gimnastika, mashqlari, harakatli o‘yinlar har bir oilada, aylanishi, qishlok joylarda normaga aylanishi zarur, deb ta’kidlangan bo‘lsada amalda teskarisi bo‘ldi. Amalda o‘zbek yigit qizlari paxta maydonlaridan chiqmadilar. Yoshlarimiz har tomonlama ma’lumotli bo‘lib qolmay, ma’naviy go‘zal, sog‘lom, jismoniy baquvvat bo‘lishi zarur. Bunday bo‘lish uchun sport

harakatining ommaviyligiga e'tibor berish jismoniy tarbiyani rivojlantirish yoshlarning irodaviy sifatlarini chiniqtirish, yigit va qizlarning jismoniy jihatdan mehnat va mudofaga tayyorlash zarur bo'ladi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishda gigena talablarini bajarish katta ahamiyatga ega. Ammo, o'sha davrda sport gigenasiga sport to'garaklari va zallari kabi deyarli e'tibor qaratilmadi. [4]

Bizning yoshlarimiz har tomonlama ma'lumotli va ma'naviy go'zalgina emas, balki sog'lom, chiniqqan, jismoniy baquvvat bo'lishi ham kerak. Bizni hamisha sport cho'qqilarining o'zgina emas, balki eng avvalo, sportning ommaviyligi qiziqtiradi. Bu sohada erishilgan muvaffaqiyatlardan ravshan ko'rinib turibdi. Lekin shunday bo'lsa ham ko'pchilik uchun sportbugungi kunda ham yolgiz tomosha bo'lib qolmokda. Jamiyatning rivoji yo'lida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doimo e'tibor qaratilgan.[7,8,9, 11,12] Shak-shubhasiz jismoniy tarbiya aholining keng qatlamlari va ayniqsa bolalarning kundalik hayotidan keng o'rin olmog'i kerak.

Sportni madaniy-ijtimoiy tarixiy hodisa sifatida o'rganar ekanmiz, ta'kidlash joizki, sportda ham xuddi insonning boshqa faoliyat sohalarida bo'lgani kabi, yuksak va olijanob maqsadlar ham, g'ayrli, xudbinlarcha va past tamoyillar ham hamisha bo'lgan, bor va bundan keyin ham bo'ladi. Ana shu ma'noda jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi fan falsafiy antropologiya bilan birlashib ketadi. Chunki bu yo'nalish asoschisi M.Shelerning so'zlari bilan aytganda, falsafiy antropologiya

-inson mohiyati to'g'risidagi va insonning mohiyatan tuzilishi to'g'risidagi; uning tabiat saltanatiga (noorganik dunyoga, o'simliklarga, hayvonotga) munosabati to'g'risidagi;

-uning metafizik jihatdan mohiyatan yaratilishi va uning dunyodagi jismoniy, aqliy va ruhiy javhari to'g'risidagi;

-uni harakatga keltiruvchi va u harakatga keltiruvchi kuchlar va imkoniyatlar to'g'risidagi; uning biologik, psixik, ruhiy-tarixiy va ijtimoiy kamolotining asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi, uning muhim imkoniyatlari to'g'risidagi va ularni ro'yobga chiqarish to'g'risidagi fundamental fandir.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyaiga oid ilmiy adabiyotlarda, sport, undan ko'zda tutilgan ijtimoiy muhim maqsadlarga muvofiq ravishda, turli-tuman yo'nalishlar, turlar, tasniflarga ajratiladi. Bularning hammasi sport falsafasi doirasida sport, jismoniy madaniyat va jismoniy tarbiya nazariyasining toifalovchi-ta'riflovchi tizimini ishlab chiqish, yangilash va takomillashtirish masalasini taqazo etadi.

“Sport jamiyatning asosiy sohalariga keng ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda sport - bu mehnat, sevimli mashg'ulotlar, bo'sh vaqt va shaxsiy rivojlanish jarayoniga bevosita ta'sir qilmoqda”. [10] Albatta unutmasligimiz lozimki, jismoniy mashqlar aholi salomatligini

mustahkamlashning asosiy vositalaridan biriga aylangan shu bilan birga ijtimoiylashuvning doimiy uzluksiz bo'lgan jarayonida muhim o'rin tutadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda sportni ommalashtirish ishlari olib borilmoqda. Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali har bir fuqaroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo'lishini ta'minlash, zararli odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilishning ijtimoiy zaruriyatini his qildik.

Xulosa. Jismoniy tarbiya axloq, mehnat, aql-zakovat va estetik tarbiya uyg'unlashtirgandagina kishilarning barkamol rivojlanishiga, ularning ma'naviy fazilatlariga katta hissa qo'shadi. Sport orqali ijtimoiylashuvning yorqin namunasi, Paralimpiyachi sportchilardir. Paralimpiyachilar qiyin hayotiy vaziyatlarga qaramay, o'z maqsadlari, jamiyatdagi o'rnolari uchun kurasha oladigan ruhan kuchli, irodasi baquvvat jamiyatimizning faol a'zolaridir. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya va sport nafaqat insonning ijtimoiylashuvini shu bilan birga jismoniy xususiyatlarini, uning farovonligini va o'ziga xos qobiliyatlarini shakllantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, vujudga kelgan ilmiy an'analarni davom ettirgan holda sportning ijtimoiy-madaniy hodisa sifatidagi mohiyatini tadqiq etish, uning ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelgan barcha tizimlaridagi ahamiyatini va o'rnini aniqlab bugungi tahlikali va shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda ilmiy jihatdan yoritib borish davr talabidir. Bolalikdan sog'lom turmush tarzini, sport bilan shug'ullanishni to'g'ri yo'lga qo'yilsa keyinchalik uning har tomonlama jismoniy hamda ma'naviy rivojlanishida muhim omillardan biri vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т.: “Ўқитувчи”, 1992. 22-23-бетлар.
2. Бехбудий. Падаркуш. Ўзбек педагогикаси антологияси. Т.: “Ўқитувчи”, 1995. 449-бет.
3. Мунавварқори Абдурашидхонов. Адибуссоний. Танланган асарлар. Т.: “Маънавият”, 2003. 73-бет.
4. Минх А. А. Очерки по гигиене физических упражнений и спорте: учебно-практическое издание-Стеротипная издания.-М: Альянс, 2016.-384с.

5. Навоий “Садди Искандарий” Тошкент. «Yangi asr avlodi» нашриёти. 2021й
6. Насиров.О, Н.Мусаев IX-XII асрларда Ўрта Осиёда маданий муҳит Ўзбекистон Аграр фани Хабарномаси журнали Т.,2006 й, 3-сон, 120-123 бетлар.
7. Қиёмиддин Назаров Ўзбек фалсафаси Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Тошкент – 2013
8. Темур тузуклари Ilm-Ziyo-Zakovat нашриёти Тошкент. 2020 йил
9. Воронцов Вс. Тафаккур гулшани. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981, 527-бет.
10. Холиқов Б.Х., Агзамов А.А. Курашчиларда куч сифатини ивожлантириш услубиятини такомиллаштириш. Спортда юқори натижаларга эришишда илмий-педагогик ва тиббий-биологик таъминлаш масалалари. Республика илмий-амалий анжумани Тошкент – 2011. 57-58 бет
11. Шермухамедова Н. Фалсафанинг умумназарий масалалари (борлиқ ва ривожланиш) фалсафаси. – Т.: UzMU, 2012. – 54-56-б.
12. Яхшиликков Ж.Я., Ахадов Ш.А. Темурийлар маънавияти. Т.: “Фан”, 1999. -163 б.
13. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>